

ISSN 2010-5460

2021
№ 7

MAKTAB VA HAYOT

ILMIY-METODIK JURNAL

BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

TAHRIR HAY'ATI

Alisher UMAROV
Ayubxon RADJIYEV
Boris BLYAXER
Risboy JO'RAYEV
Rustem REIMOV
Lola MO'MINOVA
Sherzod SHERMATOV
Sharibboy ERGASHEV
G'ayrat SHOUMAROV

Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva
Adabiy muharrir
Sayyora Alimxodjayeva
Kompyuterda sahifalovchi
va dizayn
Mirtohir Xoliqov

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarning uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va tegiriz cillanmaydi.

Mualliflarning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

Muassislar:
O'quvchilarni kasb-hunarga
yo'naltirish va
psixologik-pedagogik
respublika tashxis markazi
«MAKTAB VA HAYOT» M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib chiqilganda
«MAKTAB VA HAYOT» dan o'tindi,
deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan
chiqa boshlagan.

MANZIL:

100095, Toshkent sh.,
Olmazor t., Ziyo ko'chasi, 6A uy.
Tel: (0371) 246-21-02
E-mail: maktabvahayot@sarkor.uz

OBUNA INDEKSI - 1019

MUNDARIJA

L.TOYIROVA.

O'smir egizaklarning ijtimoiy muhitga moslashish jarayonidagi psixologik to'qnashuvlar..... 2

D.A.MUSAYEVA.

Maktabgacha yoshdagi koxlear implantantli bolalarning pedagogik reabilitatsiyasi..... 3

M.YU.AYUPOVA, A.JUMABOYEVA.

Bolalarning yozuv ko'nikmasini shakllantirish..... 5

M.F.HAKIMOVA, N.R.SAIDOVA.

Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda kommunikativ faoliyatni korreksiyalashning asosiy usullari..... 7

M.F.HAKIMOVA.

Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarni maktab ta'limiga psixologik jihatdan tayyorlash..... 9

B.X.XUSNIDDINOVA.

Bo'lajak logopedlarni deontologik tayyorlash masalalari..... 10

A.B.MAMATOVA.

Inklyuziv ta'lim sharoitida aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar nutqini xalq o'zaki ijodi asosida rivojlantirish..... 12

I.T.SIRADJEV.

Xalq ta'limi muassasalarining faoliyatini takomillashtirish uchun byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish mexanizmlarini o'zlashtirish..... 14

N.T.RASULOVA.

Yuqori sinf o'quvchilarida reproduktiv ongni shakllantirishda oilaga qadriyatli munosabatni tarbiyalashning psixologik-pedagogik jihatlari..... 18

D.B.ALIBOYEVA.

Boshqaruv jarayonida qaror qabul qilishning ijtimoiy - psixologik asoslari..... 20

N.Z.ABIDOVA, D.A. RAXMATOVA.

Duduqlanishning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish yo'llari..... 22

L.SH.NURMUXAMEDOVA, I.ABDUXALILOVA

Maksus ta'lim muassasalarida tarbiyaning mohiyati..... 24

Z.X.NAZAROVA.

Bokschi qizlarning muvaffaqiyatga erishishida psixologik trening hamda psixokorreksiyaning amaliy ahamiyati..... 26

Z.I.SABIROVA.

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarning kompleks buzilishlari haqidagi zamonaviy g'oyalar..... 27

SH.I.TOYIROVA.

Egizaklarning o'qishdagi muammolarini psixologik korreksiyalash usullari..... 30

N.A.BAXRIYEVA.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni hissiy rivojlantirishning dolzarbligi..... 32

X.IKROMOVA.

Ta'lim tizimida millatlararo munosabatlarni rivojlantirish tamoyillari..... 34

G.ALIMOVA.

Autistik spektri buzilgan bolalarning psixologik xususiyatlari..... 35

M.R.PO'LATXO'JAYEVA.

Bolalarda uchraydigan nerv tizimining yuqumli kasalliklari va uning asoratlari..... 37

X.YA.SHARIFBAYEVA, D.A.ABDURAZZAKOVA.

Mobil texnologiyalarni qo'llashning pedagogik-psixologik va uslubiy jihatlari..... 39

C.K.SHOAXMEDOVA.

Использование компьютерных технологий в работе с детьми с нарушениями речи..... 41

Y.CH.MUSLIMOVA, M.T.TOLEGENOVA, N.KO'CHAROVA.

Uzluksiz ta'limda astronomiya o'qitishni rivojlantirish istiqbollari..... 43

yetakchi, ya'ni ikkilamchi og'ishlarga ega va anomal rivojlanish strukturasi belgilaydigan, bu kabi tuzilmadagi birlamchi buzilishlar esa aniq ifodalanmagan yoki kompensatsiyalanmagan va shuning uchun asoratlarga olib kelmaganligi bois, asosiy yetakchi nuqsonga ta'sir o'tkaza oladi.

Murakkablashgan nuqson mavjud bo'lganda, ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti va umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotining turi yetakchi (asosiy) nuqsonning tuzilishiga ko'ra belgilanadi, ammo ta'lim va tarbiya jarayonida individualizatsiya, shuningdek, asosiy va birgalikda keluvchi buzilishlarning kombinatsiyasini hisobga olgan maxsus korreksion dastur, qo'shimcha ravishda maxsus davolash talab qilinadi.

Zamonaviy kasbiy so'z boyligida "kompleks buzilish", "bir necha buzilish", "buzilishning murakkab tuzilishi", "murakkablashgan buzilish" tushunchalarining ta'rifini aniqlashtirish bolalarning xarakterologik xususiyatlarini turli buzilishlar uyg'unligi bilan ochib berish imkonini beradi. Maxsus ta'lim tizimini va ushbu toifadagi bolalarni rivojlantirishni tashkil etish va optimallashtirish yo'llarini topish uchun mazmuni tanlash, uslublar, usullar, vositalar va faoliyat shakllarini mos ravishda tanlash, bolalarga tabaqalashtirilgan yondashuv, individual dasturlar, texnologiyalar va rivojlanish hamda o'rganish uchun optimal sharoitlarni yaratish bilan ifodalanadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019 yil 13 maydagi 391-son Qarori.

2. Выготский Л.С. Проблемы дефектологии / Сост. Т.М.Лифанова. – М.: 1995.

3. Концепция Государственного стандарта общего образования лиц с ограниченными возможностями здоровья. Федеральный компонент. 2-е изд. – М.: 1997.

4. М.Г.Блюмин Распространенность, этиология и некоторые особенности клинических проявлений сложных дефектов // Дефектология. 1989. №3.

5. В.И.Лубовский. Психологические проблемы диагностики аномального развития детей. – М.: 1989.

6. Е.М.Мастюкова Современные проблемы дифференциальной диагностики аномалий психического развития у детей // Диагностика и коррекция аномалий психического развития у детей: Сб. науч. трудов / Под ред. Е.М.Мастюковой, И.Ф.Марковской. – М.: 1988.

7. В.Н.Чулков Развитие и образование детей со сложными нарушениями развития // Специальная педагогика / Под ред. Н.М. Назаровой. – М.: 2001.

8. В.Н.Чулков Вопросы изучения психического развития слепоглохих детей и характеристика вариантов развития при слепоглохоте //Коррекционно-воспитательная работа с детьми при глубоких нарушениях зрения и слуха / Под ред. В.Н.Чулкова. – М.: 1986.

9. Т.А.Басилова, Н.А.Александрова Как помочь малышу со сложным нарушением развития: Пособие для родителей / Т.А.Басилова, Н.А.Александрова. – М.: 2008.

10. Е.Л.Черкасова Нарушения речи при минимальных расстройствах слуховой функции (диагностика и коррекция). – М.: 2003.

EGIZAKLARNING O'QISHDAGI MUAMMOLARINI PSIXOLOGIK KORREKSIYALASH USULLARI

Sh.I.Toyirova, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti, Pedagogika ta'lim fakultetining "Pedagogika, psixologiya va texnologik ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi

В статье представлены психологические характеристики близнецов школьного возраста и рекомендации по преодолению трудностей в их обучении.

Ключевые слова и понятия: близнецы, характер, особенности, исправление, дифференциал, дифференциация, способность.

The article presents the psychological characteristics of school-age twins and recommendations for overcoming difficulties in their learning.

Key words and concepts: twins, character, traits, correction, differential, differentiation, ability.

Oilada egizak tug'ildi. Bu juda quvonchli voqeya. Egizaklar tarbiyasi ular olami kabi o'ziga xos. Avvalo, shuni ta'kidlash joizki, qo'shaloq bolalarning tashqi qiyofalari o'xshash, fe'l-atvorlarida yaqinlik bor. Lekin yana bir jihati ham borki, ularning maktabda bilimlarni o'zlashtirish darajasida farqli holatlari ham yetarlicha. Gohida ularning o'qishlari "pastu balandlik"dan xoli emas. Buning sababi nimada?

Kuzatuv va o'rganishlar shuni ko'rsatayotiki, egizaklarda, gohida ayrimlarida nutq rivojlanishi bir xil emas ekan. Hattoki, qo'shaloq bolalar o'rtasida, shundaylar borki, ularning aqliy faoliyati ham teng emas. Bu toifadagi o'g'il yoki qizlar bilan ishlash, qiziqishlariga e'tiborliroq qarash talab etiladi.

Yana bir savol: egizaklar va ularning yolg'iz tug'ilgan tengdoshlari bilan o'qishlaridagi muammolar bir xilmi? Masala shunday tarzda qo'yilayotgani bejiz emas. Gap shundaki, agar muammolar har xil ko'rinsa-da, toq tug'ilganlar muammosini hal qilishdagi uslubni egizaklarga qo'llab bo'lmaydi. Bu narsa egizaklarda

bir muncha o'ng'ayroq kechadi.

Xalqaro, xususan Rossiyada o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatayotiki, qo'shaloq o'g'il bolalarning o'qish va yozish qobiliyati yaxshi rivojlanmagan yolg'iz dunyoga kelganlardan quyidagilar asosida farq qiladi. Egizaklar nutq rivojlanishida ortda qolishadi yoki ortda qolishgan. Bu ularga yozishu o'qish va hisob-kitobda qiyinchilik tug'diradi. O'xshash holatlar qizlarga ham xos. Muammo ularning biron ishini qila olmasligida emas, balki bu yumushga xohish bilan yondashayotganlikda namoyon bo'ladi. Qo'shaloq tug'ilganlarning ba'zilar vaqtini soatga qarab xato aytishlari yoki ikkilik sonlarini hisoblay olmaslari kuzatilgan. Bunday holda ularni rivojlantiruvchi savollarga o'ylab turib javob berishga o'rgatish kerak.

Egizaklar orasida chapaqaylar yoki bitta o'ng qo'l, ikkinchisi chapaqaylar uchraydi. Buni o'qishda orqada qolishlar bilan bog'lab bo'lmaydi. Angliya va Avstraliyada o'tkazilgan tajribalar asosida

egizaklar bilan yakkama-yakka shug'ullanish tavsiya etilgan.

Egizaklarning o'qishini rivojlantirishda korreksiya usulidan foydalanish muhim. Bu shuni anglatadi, nutqning rivojlanishiga alohida e'tibor berish kerak. Gap shundaki, nutqga ta'sir qiladigan omillar o'qishda ham amal qiladi. Ko'pchilik ota-onalar egizaklarning bir paytni o'qishda o'qishni o'rganishlarini ma'qul, deb bilishadi. Holbuki, ular qo'shaloqlarning psixologiyasi va qobiliyatidan kelib chiqib, ular bilan alohida shug'ullanishlari samarali bo'ladi.

Yoki boshqa bir holat. Ayrim oilalarda har bir egizak bilan alohida shug'ullanishkan, ba'zida yaqin qarindoshlari yordamidan ham foydalanishadi. Lekin bunda ehtiyot bo'lish kerak. Ay-taylik, o'qishga o'rgatish jarayonida yordamga kelgan buvi tezkor Fotimani maqtagudek, xola esa Zuhrani ustun ko'rsa, bolalarning o'ziga baho berish qobiliyatiga putur yetadi. Ana shu nuqtada esa maktabning ustunligini e'tirof etishga to'g'ri keladi. Ta'lim dargohida o'qish egizaklarning atrofida tengdoshlari bilan o'zaro mu-soabaqalashishlari uchun qulay muhit hisoblanadi. Bunda qo'shaloq tug'ilgan bolalar bilan o'qilgan kitobni muhokama qilish jarayoni-da ular muallif, asar muqovasi va sahifalardagi rasmlar haqida tushunchalar hosil qilishga, fikr yuritishga o'rgatish lozim.

Bolada yaxshi o'qish qobiliyatini rivojlantirish alohida e'tibor talab qiladigan jarayon. Bunda oila va o'qituvchi hamkorligi ju-da muhim. Pedagoglar o'rni kelganda, ona-otalarga bolalar bilan ishlashning nozik jihatlari haqida, masalaga psixologik yondashuv xususida tavsiyalar berishlari kerak.

Tadqiqot metodlarining differensial farqlanish va bir biri-ga bog'liqligi.

Mavjud bo'lmagan hayvon metodikasi bo'yicha olingan natijalar bo'yicha namuna

1	Axmedov Hasan	Kelajakka aloqador holatni salbiy emotsiyasidan foydalanadi. Xafa bo'lish odati mavjud bo'lib vaziyatga qarab moslashadi. Egotsentrizm mavjud bo'lib o'ziga tegishli axborotlarga qiziqadi.	Axm-edova Zuhra	Hali bo-laligi tark etmagan qo'rquv mavjud, emotsional shaxs toifa-siga kiradi.
2	Azimova Fotima	Tashqi muhitdagi axborotlarga qiziquvchan, namoyishkoro-nalilik mavjud bo'lib, unda egotsentrizm mavjud. O'zini oqlash va tajavuskorlikka moyil, o'zini menligini ustun qo'yadigan shaxs toifasiga kiradi.	Azimova Zuhra	Hayotda barcha sohalarga qiziqadi. O'ziga ishongan, emotsional shaxs toifa-siga kiradi. O'zidan bezotavlani-sh yuqori bo'lib, uni emotsiyasi orqali nam-oyon qilib qo'yadi.

Bu tadqiqot ishida 20 juft kasbiy yo'nalishga ega bo'lgan

o'smir egizak o'quvchilar ishtirok etishdi va ularning bir-biridan farqlanuvchi xususiyatlari, yetakchi komponentlari, funksiyalari, alohida belgilar ko'rindi.

№		Egizak Kattasi (Xasan, Fotima)	Egizak Kichigi (Xusan, Zuxro)
1	Egotsentrizm	35%	20%
2	Agressiya	10%	15%
3	Tajavuzkorlik	10%	20%
4	Qo'rquv	15%	20%
5	Axborotga qiziquvchanlik	30%	30%
6	O'ziga yuqori baho berish	20%	10%
7	O'ziga past baho berish	20%	30%
8	Namoyishkoralik	20%	25%
9	Emotsional shaxs	15%	25%

Xulosa qilib aytganda, egizaklarning bir-biridan farqli va farqli bo'lmagan shaxsiy sifatlarining "Mavjud bo'lmagan hayvon" metodikasi orqali matematik-statistika tahlili quyidagi natijalarni berdi:

Tadqiqot ob'ektlaridagi o'smir egizak o'quvchilarining (9-va 11-sinf o'quvchilari misolida) 9 ta sifat shkala asosida shaxslilik xususiyatlarining o'ziga xos umumiy-tipik ko'rsatkichlari aniqlanganda shu narsa ayon bo'ldiki, o'quvchilarida (n=40) individual psixologik xususiyatlariga asoslangan faol-ijobiy shaxs sifatleri ko'rindi. Shu jumladan, shaxsiy sifatlardan o'ziga yuqori baho berish kichkina egizaklardan nisbatan katta egizaklarda yuqori natija ko'rsatgan bo'lsa, o'ziga past baho berish shkalasi bo'yicha qarama qarshi natija ko'rsatdi. Olingan bu ma'lumotlar egizak shaxsining shaxslararo sifatlarini bir-biriga nisbatan motivatsiyasi imkoniyatlari haqida tegishli ilmiy tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Морозова Т. Особенности работы с детьми-близнецами Народное образование 2009 № 1.
2. Зырянова Н.М. Близнецы вступают во взрослую жизнь. // Семья и школа, 2007, № 9.
3. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 06, 2020 ISSN: 1475-7192 PSYCHODIAGNOSTICS OF DISTINGUISHING TWINS FROM EACH OTHER Toyirova Shakhlo Izatovna, Bakhriyeva Nargiza Axmedovna.
4. Тойирова Ш. И., Тойирова Л. И. Психологическая роль геронтологии в республике Узбекистан //Инклюзивное образование и психолого-педагогическое сопровождение лиц с ОВЗ и инвалидов: от раннего возраста до профессиональной подготовки. Региональные практики и модели. – 2020.
5. Toyirova L. Egizaklar rivojlanish bosqichlaridagi o'ziga xos psixologik xususiyatlar //Oriental Art and Culture. – 2020. – № 1 (2).
6. Ш Тойирова, Бухоро давлат университети Ўзбек онла-ларда эгизак фарзандларни тарбиялашдаги ўзига хос психоло-гик муаммолар 122 Научно-методический журнал «Искус-ство и культура Востока» – (2) I / 2020 ISSN 2181-063X <http://oac.dsmi-qf.uz>
7. Тойирова Л., Ульмасова Д. Навыки тренера и органи-зационные вопросы как влияние на процесс психологической подготовки // Свет ислама. – 2020. – Т. 2020. № 1.